



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 439-446 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI (Buxoro viloyati misolida)



Sharapova Nigina Kadirovna

Buxoro Davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatni asrab-avaylash, ekologik holatni yaxshilash, yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlanirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'naliishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tabiat, ekologik holat, yashil iqtisodiyot, resurslar, atrof-muhit, iqtisodiy faoliyat.

KIRISH

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti rivojlanishida ekologik muammolar hududlar va mintqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida eng katta salbiy ta'sir qilib turgan muammolardan sanaladi. Mamlakatlar hududiy taraqiyotini jadallashtirish, barqarorlashtirish uchun ekologik muammolarni bartaraf qilmasa, ularning ta'sir ko'lamenti pasaytirmasa, barqaror rivojlanishga erisha olmaydi. Ayniqsa, hozirga qadar amal qilgan iqtisodiy rivojlanish modellari resurstalab ishlab chiqarish sanaladi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning atrof-muhitga katta salbiy ta'sirini yuzaga keltirmoqda. Resurstalab ishlab chiqarish atrof muhitga katta ta'sir qilishi bilan birga insonlar salomatligiga va tarqqiyot kelajagiga xavf solmoqda. Shu sababdan dunyo olimlari oldida iqtisodiy rivojlanishning yangi, tejamkorresurs rivojlanish modellarini yaratish va amalda qo'llash kabi dolzarb masala yuzaga keldi. Ko'pgina olimlar bunday masalaga yechim sifatida iqtisodiy rivojlanishning yashil iqtisodiyoyot modelini taklif etishmoqda.

Bugungi kunda eng yirik global ekologik falokatlardan biri, bu Orol dengizi fojiasi bo'lib, uning ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari tufayli mintaqa, sog'liqni saqlash, genofond va unda yashayotgan odamlar kelajagini barqaror rivojlanishiga bevosita tahdid solmoqda, shuningdek, global ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orolbo'yi inqiroz zonasi bevosita Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston hududlarini, bilvosita esa, Qirg'iziston va Tojikiston hududlarini qamrab oladi.

METOLOGIYA.

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish masalalari uncha uzoq bo'limgan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy

olimlarga Jänicke M. (2011), Annon (1996, 2001), Boulding K.E. (1966), larni ko'rsatishimiz mumkin.

Jänicke M. (2011)¹ ga ko'ra, "yashil o'sish", "yashil iqtisodiyot" atamalarini va boshqa tegishli tushunchalarni birlashtirish mumkin, chunki ularning barchasi shunchaki "instrumental inqirozni oldini olish strategiyasi". Ushbu vositalar, agar to'g'ri ishlatilsa, "materiallar tanqisligi, yuqori energiya xarajatlari, suv tanqisligi, hosildorlikning pasayishi, iqlim o'zgarishi yoki atrof-muhitga zarar yetkazilishi va ularning xarajatlari"ning oldini olishi kerak. Agar jamiyat atrof-muhit nuqtai nazaridan tayyorlansa, 2008 yildagi moliyaviy inqirozning oqibatlari, garchi moliyaviy inqiroz, boshqa narsalar qatori, bank tizimining tovlamachilik tufayli yuzaga kelgan bo'lsa ham, tartibga solinmagan muhit, barqaror iqtisodiyot ta'sirning pasayishiga olib keladi.

MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida T.A. Akimova, A.G. Bannikov, M.M. Brinchuk, V.K. Donchenko, M.F. Zamyatina, M.N. Ignat'eva, N.N. Luk'yan-chikov, A.D. Malinin, Yu.V. Novikov, Yu.P. Odum, Yu.B. Osipov, I.M. Po-travnyu, N.V. Paxomova, N.B. Proxorova, V.M. Razumovskiy, N.F. Reymers, T.V. Rogova, A.S. Stepanovskix, V.V. Xaskin, S.V. Yakovlev, Ya.Ya. Yandıganov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mintaqaviy darajada G.E. Mekush, A.M. Adam, M.V. Tereshinalar tadqiqotlar olib borishgan. V.I. Vernadskiy, N.N. Moiseev, D.X. Medouz, N.F. Reymers, A.A. Grigor'ev, K.S. Losev asarlarida ekologik siyosatning zamonaviy tamoyillari masalalari ko'rilib.

Yuqoridagi olimlarning fanning, ilmiy sohaning rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etgan olda ta'kidlaymizki, O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, mintaqalari iqtisodiy rivojlanishida hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ekologik muammolarni bartaraf qilishda iqtisodiyotni ekologiyalashtirish masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, uni joriy qilishning zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari tadqiq qilinmagan.

TAHLILLAR.


Yashil iqtisodiyot sohasida olib borilgan nazariy tadqiqotlar jahon iqtisodiy tizimidagi real voqealar bilan ham tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonida Buxoro viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilashni maqsad qilib belgilagan.

¹ Jänicke, M. (2011) Green Growth: from a Growing Eco-Industry to a Sustainable Economy. Forschungszentrum für Umweltpolitik. FFU-Report 09-2011, p. 14

2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

T/p	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
Buxoro viloyati								
1.	Ichimlik suv tarmoqlarini tortish va rekonstruktsiya qilish	km	2193,7	294,1	618	489	452	341
2.	Aholining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi	foiz	x	73	79	82	85	93
3.	Oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi	foiz	x	9	15	28,3	34,8	39,6
4.	«Yashil hududlar»ni ko'paytirish:	x	x	x	x	x	x	x
4.1	hududlarda yashil maydonlar tashkil etish	Ming hektar	146,8	71,8	35,0	20,0	10,0	10,0
4.2	shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish	hektar	60,2	60,2	x	x	x	x
4.3	daraxt va manzaralii butalar ekish	Mln dona	54259	10042	10617	10700	11800	11100

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Buxoro viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Buxoro viloyatida 2022 – 2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 3,1 baravar hamda «Yashil hududlar»ni ko'paytirish, hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 146,8 ming hektar, shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 60,2 hektar, daraxt va manzaralii butalar ekish 54259 mln dona, Intensiv bog' va tokzorlar barpo etish 20230 hektar, suv ta'minoti yaxshilanadigan maydonlarni oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli amalgalash oshirib kelinmokda. Bularidan tashqari Viloyat miqiyosida meliorativ holati yaxshilanadigan maydonlar va Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.




2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar dinamikasi²

Quyidagi diagrammadan ko'rinish turibdiki Buxoro viloyatida 2022 – 2026 yillarda «Yashil hududlar»ni ko'paytirish, hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 146,8 ming hektar, shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 60,2 hektar, daraxt va manzarali butalar ekish 54259 mln dona, Intensiv bog' va tokzorlar barpo etish 20230 hektar, suv ta'minoti yaxshilanadigan maydonlarni oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli amalga oshirib kelinmokda.

Buxoro shaxarining o'zida qishloq xo'jaligi mahsuloti 1,1 baravarga ya'ni 102,2 foizga oshgan. «Yashil hududlar»ni ko'paytirish, shulardan hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 10,05ming hektarni, shahar markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 4,3hektarni, daraxt va manzarali butalar ekish 327 mln.donani tashkil qilayapti. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish 5yil ichida 1,2 ming hektarni tashkil etadi. Ichimlik suv tarmoqlarini tortish va rekonstruktsiya qilish jami 200km tashkil etayapti. Aholining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 100%, bu esa juda yaxshi ko'rsatkich. Oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi 2026-yigacha 100% bo'lishi rejalashtirilgan. Daraxt va manzarali butalar ekish 2025-2026 yillarga kelib har yili 80mln dona ekilishi rejalashtirilayapti. Bu esa o'z navbatida juda yaxshi ko'rsatkich.

² Muallif ishlanmasi



2022 – 2026 yillarda Buxoro shahrini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar dinamikasi³

Buxoro shaxarining ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak Ichimlik suv tarmoqlarini tortish va rekonstruktsiya qilish jami 200km tashkil etayapti. Aholining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 100%, bu esa juda yaxshi ko'rsatkich. Oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi 2026-yigacha 100% bo'lishi rejalashtirilgan. «Yashil hududlar»ni ko'paytirish, shulardan hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 10,05ming getktarni, shahar markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 4,3getktarni, daraxt va manzarali butalar ekish 327 mln.donani tashkil qilayapti. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish 5yil ichida 1,2 ming getktarni tashkil etadi. Diagrammadan ko'rinish turibdiki, Daraxt va manzarali butalar ekish 2025-2026 yillarga kelib har yili 80mln dona ekilishi rejalashtirilayapti. Bu esa o'z navbatida juda yaxshi ko'rsatkich.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyası", 2021 yil 30 dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini (havo, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejali ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ko'kalamzorlashtirish ishlarida barcha idora va tashkilotlar xodimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdi. Jumladan, 15 fevraldan boshlangan "Million daraxt ekish aktsiyasi" boshlangandi.

³ Muallif ishlanmasi

Aktsiya doirasida xodimlar tomonidan bir kunda Buxoro shahrining o'zida 500 tup, viloyat bo'y lab 2 000 dan ortiq daraxt ko'chatlari ekildi. Bu kabi ezgu ishlar 15 martga qadar davom etirilgan.


Lekin bularning barchasi davlat tomonidan ishlab chiqarilgan tadbirlar bo'lib hisoblanadi, buning amalini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

2019-2022 yillarda Buxoro viloyatida «Yashil hududlar»ni ko'paytirish uchun qilingan chora tadbirlar⁴.

T/p	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar kesimida							
			2019		2020		2021		2022	
			R	A	R	A	R	A	R	A
3.	«Yashil hududlar»ni ko'paytirish:	x	x	x	x	x	x	x	x	x
3.1	hududlarda yashil maydonlar tashkil etish	Ming gektar	x	x	x	x	x	x	71,8	40.4
3.2	shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish	gektar	x	x	x	x	x	x	60,2	61.0
3.3	daraxt va manzarali butalar ekish	Mln dona	x	x	x	x	x	x	10042.0	6351,11

2020-2021 yillar pandemiya davriga to'g'ri kelgani uchu bu davrlarda amalga oshirilgn chora tadbirlar ko'rsatkichi past. 2021 yil 30 dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliyl loyihasi dasturlari qabul qilingan, shuning uchun 2022 yildagi ko'rsatkichlarning reja va amalini taqqoslaymiz: hududlarda yashil maydonlar tashkil etish reja bo'yicha 71,8 ming gektar, amalda esa 40.4mln gektarni tashkil qilayapti. Shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish rejada 60,2gektar, amalda esa 61.0gektar (101 fozga yuqori), daraxt va manzarali butalar ekish rejada 10042.0 mln dona, amalda 6351,11mln donani tashkil etayapti.

⁴ Muallif ishlanmasi



2022 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarning reja va amaldagi natijalari dinamikasi⁵

Quyidagi diagrammadan ko'rinish turibdiki 2022 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 56.2%ga bajarilga, shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 101%ga, daraxt va manzarali butalar ekish 63.2%ga bajarilgan.

XULOSA

Yashil iqtisodiyot sohasida olib borilgan nazariy tadqiqotlar jahon iqtisodiy tizimidagi real voqealar bilan ham tasdiqlandi. 2008-yilda jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi, shu jumladan, jahon iqtisodiyotining, birinchi navbatda, moliya-bank tizimining barbod bo'lishiga deyarli olib kelgan sabablar, sabablar va xatolar to'g'risida global muhokamaga olib keldi. XVJ direktori X. Kohler aytganidek: "Men haligacha mena nisbatan aniq shakllantirilgan ayblovni kutyapman. Ushbu inqirozning yagona yaxshi tomoni shundaki, u xalqaro moliya bozori o'z o'rniga qo'yilishi kerak bo'lган yirtqich hayvonga aylanganini u bilan bog'liq bo'lган har bir kishiga tushuntirdi ... Bizga ko'proq kerak qat'iy va samarali tartibga solish, moliyaviy operatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun yuqori kapital talablari, yanada shaffoflik va xalqaro moliya tizimining barqarorligini mustaqil ravishda nazorat qilish uchun global institut zarur. Men allaqachon XVFga bu rolni o'z zimmasiga olishni taklif qilganman." Yevropa Ittifoqi moliyaviy inqiroz oqibatlari juda katta ekanini ta'kidladi – Yevropaning tuzilmaviy zaif tomonlari fosh bo'ldi, global muammolar kuchaydi va Yevropa bundan keyin ham pasayishning oldini olish uchun reaksiyaga kirishishga majbur bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, ekin yerlari va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda suv ta'minotini yaxshilash maqsadida:

2022 yilning hisobot davrida 2484 ta davlat ekologik nazorat tadbirlari amalgaloshirildi:

⁵ Muallif ishlanmasi

- Davlat ekologik nazorat natijasida 2361 ta qonunbuzilish holatlari aniqlanib, 1459,232 mln. so'm ma'muriy jarimalar va 319 ta holat yuzasidan 1053,534 mln.so'm tabiatga yetkazilgan zarar summalar belgilandi. (2021 yilga nisbatan 24 foizga ko'p bajarilgan)

- Atrof-muhit ifloslanishi monitoringini amalga oshirish doirasida 133 ta korxonalarining 735 ta manbalarida 1857 ta namunalar olinib, 5196 ta tahlillar o'tkazildi. 2022 yil davomida viloyatda faoliyat yuritib kelayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan 184,0 mln.so'mlik xo'jalik shartnomalari imzolanib, xizmat ko'rsatildi.

Viloyat bo'yicha kuz mavsumida 6 351,11 ming tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari ekildi. Diagrammadan ko'rinish turibdiki 2022 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari hududlarda yashil maydonlar tashkil etish 56.2%ga bajarilga, shahar va tuman markazlarida jamoat parklari va yashil maydonlar tashkil etish 101%ga, daraxt va manzarali butalar ekish 63.2%ga bajarilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Iqtisodiyot va sanoat vazirligida 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasining (PQ-4477, 04.10.2019 y.) mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga bag'ishlangan matbuot anjumani.
2. Shoimardonkulovich, Y. D., Kadirovna, S. N., & Abdulaziz, R. (2024). Legal Framework for the Introduction of a Green Economy in Uzbekistan. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(4), 345-350.
3. Yavmutov D.SH, Xamidovich R.O. (2020). Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslarini rivojlantirish va yaxshilashning hududiy strategiyalarini ishlab chiqish. Akademiya, (2 (53)).
4. Kadirovna, S. N., & Feruzabonu, Y. (2024). Mintaqqa Iqtisodiyotini Yashillashtirish Zarurati. Miasto Przyslosci, 47, 543-546.
5. Shoimardonkulovich, Y. D., Kadirovna, S. N., & Abdulaziz, R. (2024). Legal Framework for the Introduction of a Green Economy in Uzbekistan. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(4), 345-350.
6. Kadirovna-teacher, S. N. S. N. (2024). THE STATE AS THE MAIN SUBJECT OF INTRODUCTION OF GREEN ECONOMY IN THE REGIONS. STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD, 3(5), 40-46.
7. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlatkadastro davlat qo'mitasining 1990-2021 yillardagi yakuniy hisobotlaribo'yicha materiallar.
8. Buxoro viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi 2021-2021 ma'lumotlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya va davlatkadastro davlat qo'mitasining 2010-2021 yillardagi milliy yer hisobotlari.
10. Jaenische, M. (2011) Green Growth: from a Growing Eco-Industry to a Sustainable Economy. Forschungszentrum für Umweltpolitik. FFU-Report 09-2011. p. 14
11. <http://ekolog.uz/>
12. <https://xabar.uz/post>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

